XALQ DEPUTATLARI BOYSUN TUMANI KENGASHINING QARORI

190400, Boysun tuman, Hayot abadiy ko'chasi 1-uy, tel (376)33 53259

2022 - yil 28 - fevral VI-44-22-8-110-K/22 Boysun tuman hokimligi

Boysun tumani mahalliy byudjeti mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

Boysun tumani mahalliy byudjet mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishi ustidan nazoratni yanada kuchaytirish, tashabbusli byudjet jarayonining ochiq va oshkoraligini ta’minlash maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 26-yanvardagi KQ-302-IV-sonli qarorini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari Boysun tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Boysun tumani Kengashining 2021-yil 27-maydagi № 187/28-6-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Boysun tumani mahalliy byudjeti mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

2. Boysun tumani hokimligi axborot xizmati (Y.Xoliyorov) va “Boysun” gazetasi (X.Qarayev) mazkur qarorni o‘rnatilgan tartibda e’lon qilinishini hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Boysun tumani Kengashinig “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (O’.Jabborov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (F.Normamatov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **A.Ch.Jo'rayev**

Xalq deputatlari Boysun tuman
Kengashining
2022 yil 28 fevraldagi
VI-44-22-8-110-K/22-son qaroriga
1-ilova

Boysun tumani mahalliy byudjeti mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish tartibi to‘g‘risida nizomga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

Xalq deputatlari Boysun tumani Kengashining 2021-yil 27-maydagi № 187/28-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Boysun tumani mahalliy byudjeti mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomga quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin:

1) Quyidagi mazmundagi 5^1 va 5^2-bandlar bilan to‘ldirilsin:

“5^1.tuman tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo‘yicha ma’lumot ushbu Nizomning 3-ilovasiga muvofiq umumlashtiriladi”;

“5^2. tuman “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar yuzasidan ma’lumot ushbu Nizomning 4-ilovasiga muvofik umumlashtiriladi”;

2) 6-band:

a) quyidagi mazmundagi 6-band kiritilsin:

“6.Tuman moliya bo‘limi (keyingi o‘rinlarda – ishchi organ) Ishchi komissiyaning ishchi organi hisoblanadi”;

b) 6-band 7-band deb hisoblansin;

3) 7-band:

a) quyidagi ikkinchi xat boshi bilan to‘ldirilsin:

“Bunda g‘olib deb topilgan har bir tadbir uchun alohida mablag‘lar manbasi “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” bo‘lgan shaxsiy g‘azna hisobvarag‘i ochiladi va barcha xarajatlar ushbu g‘azna hisobvarag‘i orqali amalga oshiriladi”;

b) 7-band 8-band deb, 8-band 9-band deb hisoblansin;

4) 9-band:

a) 9-bandning ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Tuman mahalliy byudjetining tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foizi miqdoridagi mablag‘larning yarmidan kam bo‘lmagan qismi - mazkur moliya yilining yanvar oyida, qolgan qismi iyun oyida”;

b) 9-band 10-band deb, 10-band 11-band deb hisoblansin;

5) 11-band:

a) 11-band quyidagi mazmundagi ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi qismlar bilan tuldirilsin:

“Bunda tadbirlarni amalga oshirish ishlari boshlanib, tegishli moliya yilida bajarilgan ishlar uchun mablag‘lar tuliq o‘tkazib berilmagan bo‘lsa, tegishli g‘azna hisob varag‘idagi mablag‘lar jamg‘armaga tiklanmaydi va kelgusi yilning yanvar oyida pudratchiga to‘lab beriladi.

Agar yil yakunlariga ko‘ra rasmiylashtirilgan shartnomaga muvofiq tadbirlar amalga oshirilmagan yoki qisman bajarilgan bo‘lsa, shartnomada belgilangan tadbirlarni hamda to‘lovlarni kelgusi yilda amalga oshirishni nazarda tutuvchi qo‘shimcha kelishuv rasmiylashtiriladi.

Bunda g‘olib deb topilgan tadbirlar doirasida hisobot yili yakunlariga ko‘ra to‘liq bajarilmagan hollar uchun istisno tariqasida tomonlar o‘rtasida tuzilgan shartnomalarning amal qilish muddatlarini kelgusi yil yakuniga qadar uzaytirish bo‘yicha shartnomlarga o‘zgartirishlar kiritilishiga ruxsat beriladi”;

b) 11-band 12-band deb, 12-band 13-band deb, 13-band 14-band deb, 14-band 15-band deb hisoblansin;

6) 15-band:

a) 15-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Takliflar fuqarolar tomonidan respublikaning istalgan hududi bo‘yicha faqat bir marotaba berilishi mumkin. Bunda taklif mazmunan yagona ijtimoiy muammoni o‘zida aks ettirishi lozim”;

b) 15-band 16-band deb, 16-band 17-band deb hisoblansin;

7) 15-band:

a) 17-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Fuqarolarda “Ochid byudjet” axborot portalidan foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lmasa, ular o‘z takliflarini tegishli mahalla yoki ovulda tashkil etilgan

“tashabbuskorlar burchagi” orqali qoldirishlari mumkin”;

b) 17-band 18-band deb hisoblansin;

8) 18-band:

a) quyidagi mazmundagi beshinchi va oltinchi xat boshilar bilan to‘ldirilsin:

“mahalliy davlat hokimiyati va davlat organlarining binolari va inshootlarini qurish, ta’mirlash va jihozlash ishlariga, shu jumladan ularning boshqa ehtiyojlarini qoplashga qaratilgan bo‘lmasligi lozim;

ko‘rsatilgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan joriy yilda manzilli ro‘yxat (hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha dasturlar yoki tashrif bayonlari va boshqalar) ga asosan mablag‘ ajratish kuzda tutilgan bo‘lsa, ushbu takliflar asoslangan holda qabul qilinmasligi lozim”;

b) beshinchi xat boshisi yettinchi xat boshi deb hisoblansin;

s) 18-band 19-band deb hisoblansin;

9) 19-band:

a) 19-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“19. Ishchi komissiya takliflarni “Ochiq byudjet” axborot portaliga kelib tushgan kundan boshlab o‘n kun muddatda ushbu Nizomning 15 va 18-bandlarida ko‘rsatilgan mezonlarga muvofiqligi hamda tadbirlar amalga oshirilishi imkoniyatlarini o‘rganadi va takliflarni mezonlarga muvofiq saralab boradi”;

b) 19-band 20-band deb hisoblansin;

10) 20-band:

a) 20-band quyidagi mazmundagi ikkinchi xat boshi bilan tuldirilsin:

“Loyiha-smeta hujjatlari bo‘yicha aniqlashtirilgan mablag‘lar miqdori Ishchi komissiya tomonidan aniqlangan dastlabki miqdordan ko‘pi bilan 5 foizga oshishiga yo‘l qo‘yiladi”;

b) 20-band 21-band deb hisoblansin;

s) 21-band bekor qilinsin;

11) 22-band:

a) quyidagi mazmundagi 22-band kiritilsin:

“22. Ishchi organ tanlab olgan takliflar tanlab olingan sanadan e’tiboran uch ish kuni ichida ishchi organ tomonidan onlayn ovoz berishni tashkil etish uchun “Ochiq byudjet” axborot portaliga joylashtiriladi. Ovoz berish takliflar joylashtirilgan sanadan e’tiboran yigirma ish kuni davomida o‘tkaziladi”;

b) 22-band 24-band deb hisoblansin;

12) 23-band:

a) quyidagi mazmundagi 23-band kiritilsin:

23. “Ochiq byudjet” axborot portalida ro‘yxatdan o‘tgan har bir shaxs “Ochiq byudjet” axborot portalida joylashtirilgan faqat bir taklifga ovoz berishi mumkin”;

b) 23-band 25-band deb hisoblansin;

1) 4-band 26-band deb hisoblansin;

2) 25-band 28-band deb hisoblansin;

3) 26-band 29-band deb hisoblansin;

4) 27-band 30-band deb hisoblansin;

5) 28-band:

a) 28-band quyidagi mazmundagi uchinchi qism bilan to‘ldirilsin:

“Tuman hokimligi Ishchi komissiyaning har yili tegishli tuman hokimi boshchiligida televizion kanallar orqali “Tashabbusli byudjet” jarayoni amalga oshirilishi borasida fuqarolarga jonli muloqotni olib borishni nazarda tutuvchi dasturda ishtirok etishni yulga quysinlar”;

b) 28-band bekor qilinsin;

1) 29-band 31-band deb hisoblansin;

2) 30-band 32-band deb hisoblansin;

3) 31-band 33-band deb hisoblansin;

4) 32-band:

a) quyidagi mazmundagi 32^1 va 32^2-bandlar bilan to‘ldirilsin:

“32^1. tuman hokimligi har chorak keyingi oyining 10 kuniga qadar o‘zlarining rasmiy veb-saytlarida mazkur Nizomning 3 va 4-ilovalarida keltirilgan

tavsiyaviy shakllarda tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo‘yicha ma’lumotlarni joylashtirib borishga mas’uldirlar”;

“32^2. Hududlarda takliflarni saralab olish jarayoni yuzasidan yoki tadbirlarni moliyalashtirish bilan bog‘liq yuzaga kelgan nizolar Moliya vazirligi tomonidan ko‘rib chiqiladi”;

b)32-band 34-band deb hisoblansin;

1) 33-band bekor qilinsin;

2) 34-band 35-band deb hisoblansin;

3) 1-ilovaning:

4-bosqichi quyidagi tahrirda bayon etilsin

4-bosqich	Ishchi komissiya	Mezonlarga muvofiqligi hamda amalga oshirilishi imkonyatlarini o‘rgangan holda takliflarni tanlab oladi	Takliflar “Ochiq byudjet” axborot portaliga kelib tushgandan boshlab o‘n ish kunida

5-bosqichi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

\5-bosqich	Ishchi organ	1.Tanlab olgan takliflar ovoz berishni tashkil etish uchun “Ochiq byudjet” axborot portaliga joylashtiriladi. 2. Jamoatchilik tomonidan ovoz berish jarayoni o‘tkaziladi.	Takliflarni tanlab olingan sanadan e’tiboran uch ish kuni ichida Takliflar joylashtirilgan sanadan etiboran yigirma kun davomida

Xalq deputatlari Boysun tuman
Kengashining
2022 yil 28 fevraldagi
VI-44-22-8-110-K/22-son qaroriga
2-ilova

Boysun tumani tashabbusli byudjetlashtirish natijalari bo‘yicha

MA’LUMOT

T/R	Ko‘rsatkich nomi	Summa (ming so‘m)
1	Yil boshiga qoldiq	
2	Hisobot davrida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga o‘tkazilgan mablag‘lar	
3	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan	
3.1	*Bajarilgan ishlar uchun hisob varaqlardan moliyalashtirilgan mablag‘*	
3.2	*Hisobvaraqlardagi qoldiq*	
4	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da qoldiq mablag‘	

T/R	Tadbirlar nomi	Moliyalash-tirilgan taklif soni	Ko‘rsatkichlar		
			o‘lchov birligi	miqdori	sarflangan mablag‘
Jami			**X**	**X**	
1	Hududiy ichki yullar		Umumiy uzunligi		
2	Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va jihozlash		Soni		
3	Maktabgacha ta’lim muassasalarini ta’mirlash va jihozlash		Soni		
4	Sog‘liqni saqlash muassasalarini ta’mirlash va jihozlash		Soni		
5	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta’mirlash va jihozlash		Soni		
6	Ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash		umumiy o‘zunligi		
7	Kucha chiroqlarini o‘rnatish tadbirlari		chiroqlar soni		
8	Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish)		tadbir soni		
9	Boshqa tadbirlar		soni		

Xalq deputatlari Boysun tuman Kengashining
2022 yil 28 fevraldagi
VI-44-22-8-110-K/22-son qaroriga
3-ilova

Boysun tumani “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yunaltirilgan mablag‘lar yuzasidan

MA’LUMOT

T/R	Tadbirning xos rakami (ID)	Jami to‘plagan ovozlar soni	shundan		Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Tadbirning moliyalashtirilishi (ming sum)					
			Ovozlar onlayn	Oflayn ovozlar		Moliyalashtirish uchun ochilgan xisobvarak;	Fuqaro tomonidan kiritilgan tadbirning dastlabki kiymati	Tadbirni amalga oshirishdagi aniklangan kiymati*	Ajra-tilgan mablag‘	Bajarilgan ishlar uchun to‘lab berilgan mablag‘	Qoldiq mablag‘
	Jami										
1.											
2.											
3.											

“loyiha-smeta xujjatlari va ekspertiza xulosasiga asosan pudratchi korxonalar tomonidan taklif etilgan qiymat”